



2021- yil yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida jami **4038,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,0 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **169,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **67,3 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,19 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **51,6 %** i yoki 2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **77,9 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-sentabr
- 2021- yil yanvar-sentabr


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **69,23 %** i to'g'ri kelib, 2020- yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,89 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil mos davriga nisbatan **112,8 %** ni tashkil etgan holda **2795,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26,6 %** ni tashkil etdi yoki **1073,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **117,9 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **118,7** mlrd. so'm yoki 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **108,4 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3919,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **4,4** martani tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2021- yil yanvar-sentabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Viloyat bo'yicha:	4038,1	118,7	2,9	3919,4	97,1
Andijon sh.	1472,5	2,4	0,2	1470,0	99,8
Xonobod sh.	108,6	-	-	108,6	100,0
tumanlar :					
Oltinko'l	192,9	5,9	3,0	187,0	97,0
Andijon	412,4	6,8	1,6	405,6	98,4
Baliqchi	122,2	3,8	3,1	118,4	96,9
Bo'ston	169,0	8,8	5,2	160,2	94,8
Buloqbo'shi	59,1	5,6	9,5	53,5	90,5
Jalaquduq	179,8	18,1	10,1	161,7	89,9
Izboskan	152,5	7,1	4,7	145,4	95,3
Ulug'nor	89,4	6,2	7,0	83,2	93,0
Qo'rg'on-tepa	115,1	10,3	8,9	104,8	91,1
Asaka	182,6	7,5	4,1	175,1	95,9
Marhamat	174,3	8,7	5,0	165,6	95,0
Shahrixon	281,8	12,7	4,5	269,1	95,5
Paxtaobod	199,3	4,5	2,3	194,8	97,7
Xo'jaobod	126,7	10,3	8,1	116,4	91,9

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2020- yil, yanvar-sentabr

12,4

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

12,5

Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

75,1

Bino va inshootlarni
qurilishi

2021- yil, yanvar-sentabr

9,0

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

15,8

Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

75,2

Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,4 %** ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **4,0 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,8 %** punktga ko'payib, **63,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,2 %** punktga ko'payib, **35,3 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **15,7 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,7 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **84,2 %** (**0,8 %** punktga kamaydi).

Norasmiy sektorning ulushi esa **0,1 %** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **3,1 %** punktga kamaydi va **7,3 %** ni tashkil etdi.

Qolgan **92,7 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **3,1 %** punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-sentabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Andijon sh.
1472,5

2

Shahrixon
281,8

1

Andijon
412,4

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Xonobod
108,6

2

Ulug'nor
89,4

1

Buloqboshi
59,1

3





Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: X.Xoldarov

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37